

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI**

**MAVZU: "O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT  
QURILISHI. FUQAROLIK JAMIYATINING SHAKLLANISHI"**

# **REFERAT**

**Bajardi: G.K.Masharipova**

**Toshkent- 2016**

Mundarija:

Kirish.

**I-bob. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurishning «O'zbek modeli».**

1.1. O'zbekistonda Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasining ishlab chiqilishi.

1.2. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari va O'zbekistonda uning o'ziga xos xususiyatlari. "O'tish davri"ning zarurligi.

**II bob. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi.**

2.1. Mustaqil O'zbekistonda shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyati.

2.2. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy-ahloqiy asoslari va uni rivojlantirish omillari.

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

## **Kirish**

**Mavzuning dolzarbligi.** O'zbekiston Respublikasi mustaqillik tufayli demokratik jamiyat qurishni asosiy maqsad qilib belgilab oldi. Uning milliy-ma'naviy merosimizga, milliy davlatchilik sohasidagi qadriyatlarimizga tayangan holda «o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanladi». Hamda fuqarolik jamiyati qurilishi bilan bog'liq vazifalarni aniqlab oldi. Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, o'zining ma'naviy qadriyatlariga, merosiga tayanmagan, uni hisobga olib umumbashariy qadriyatlar, tamoyillar bilan uyg'un qurilmagan jamiyatni haqiqiy demokratik jamiyat deb bo'lmaydi<sup>1</sup>.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurilishi bilan bog'liq o'zgarishlarga, yutuq va muammolarga, faqat uning o'ziga xos xususiyatlarini e'tirof etgan holdagina to'g'ri baho berish mumkin. Bunga hech qachon boshqa bir mamlakat, u erdagi demokratiyaga yondashuvdan kelib chiqib, to'g'ri baho berib bo'lmaydi. Bunday yondashuv xolis emas. Chunki, demokratik jamiyatni biron-bir mamlakatga qiyosan yagona andoza asosida qurib yoki boshqa xalqlarga uni ko'chirib o'rnatib bo'lmaydi. Demokratik jamiyat qurilishi o'zining xilma-xil milliy meroslariga ega bo'ladi. Har bir xalq demokratiyani o'zining milliy-madaniy merosi, siyosiy mentaliteti, fe'l-atvori, qadriyatlari orqali ko'radi hamda demokratiyaning umumbashariy ma'no va mazmunini boyitishga hissa qo'shadi.

O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyotini o'rganishning o'ziga xos zarurat va sabablari mavjud.

Bugun dunyoda demokratiya, demokratik jamiyat to'g'risida muayyan mo'tadillashgan ilmiy konsepsiyalar ishlab chiqilgan. Ularda demokratik jamiyatning qiyofasi, asoslari, yashash va rivojlanishining umume'tirof etilgan qonuniyatlari hamda uning har bir davlat, xalqning milliy-ma'naviy xususiyatlari bilan bog'liq jihatlari tobora keng miqyosda o'z ifodasini topmoqda.

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. -T., "O'zbekiston" NMIU, 2007, 34-bet.

Bugungi kunga kelib dunyoning 160 dan ortiq davlatlarida demokratik tuzumlar umumbashariy va milliy qadriyat sifatida barpo qilinganligi e'tirof etilmoqda. Aynan hozirgi davrga kelib, demokratiya insoniyat hayot tarzining eng maqbul rivojlanish yo'li ekanini deyarli barcha e'tirof etayotganligi va uning jahoniy ko'lam kasb qilayotganligi demokratiyani fan sifatida o'rganishni taqozo etayotgan sabablardan biridir.

Ikkinchidan, O'zbekistonda barpo etilayotgan demokratik jamiyat, uning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, o'rganish zarurati ham shu qonuniyat bilan bog'liqdir. Bu zarurat mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimovning: ««Insoniyat ming yillar mobaynida ishlab chiqqan demokratik qadriyatlarni to'la-to'kis o'zlashtirib olish jamiyatda islohotlarni chuqurlashtirishning muhim shartidir. Umumiy tarzda demokratik deganda hammaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish tushuniladiyu Batafsil tahlil qilinganda esa demokratiya – xalqning o'z erkinligi va mustaqilligiga qarashlari ham, har bir shaxsning manfaatlari va huquqlarini o'zboshimchalik bilan cheklashlar va shu yo'sindagi harakatlardan himoya qilish ham, fuqarolarning o'z-o'zini boshqarish shakli ham ekanligi namoyon bo'ladi»<sup>1</sup>, - deb ta'kiddlagan umumstrategik vazifani amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Xalqimiz mamlakatimiz mustaqilligining ostonasidayoq huquqqa, qonunlarga asoslanadigan huquqiy demokratik davlat qurishni mo'ljalladi. Davlatimiz rahbari tomonidan olib borilgan barcha ishlarning asosida qonunlarga itoatkorlik yotganiga alohida e'tiborni qaratishni istardik. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti I.A.Karimov haqli suratda ta'kidlaganidek<sup>2</sup>, “huquqiy davlatning quroli ham, himoyasi ham, ko'zi ham, so'zi ham qonundir. Ming afsuski, bizda qonunlarni mensimaslikka, ularni buzishga o'rganib qolingan. Qonunni buzishga hech kimning haqqi yo'q. Chunki qonun – xalqning xohish-irodasi! Uni buzgan, mensimagan odam xalqning yuziga oyoq qo'ygan kishidir. Biz qonunni hurmat qilish, unga bo'ysunish, rioya qilish yo'lidan borsak, istiqbolimiz porloq bo'ladi. Ana shunga

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.: O'zbekiston, 1997, 180-bet.

<sup>2</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, NMIU, 2011, 435-bet.

erishish uchun Prezident qonunlarning eng asosiy posboni, himoyachisi bo'lishi kerak, deb hisoblayman”.

Sud-huquq tizimini yangi asoslarda barpo etish borasida mustaqillik ostonasida va uning dastlabki yillarida amalga oshirilgan faoliyatning zaminida demokratiyaga hurmat bilan qarash yotganini, biroq “demokratik jamiyatni, eng avvalo qonunga quloq solish deb bilish”<sup>1</sup> lozimligini alohida tilga olmoq kerak. SHundan kelib chiqib aytish lozimki, O'zbekiston Respublikasida favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi. O'zbekiston Respublikasida sud O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi va boshqa qonunlarida, inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda e'lon qilingan fuqarolarning huquq va erkinliklarini, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini sud yo'li bilan himoya qilishga da'vat etilgan. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasida odil sudlov faqat sud tomonidan amalga oshiriladi.

Ma'lumki, o'tgan davr mobaynida mamlakatimizda davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish sohasida amalga oshirilgan islohotlar o'ta muhim bir maqsadga, ya'ni hokimiyatlar bo'linishi konstitusiyaviy prinsipini hayotga izchil tatbiq etish, hokimiyatlar o'rtasida o'zaro tiyib turish va manfaatlar muvozanatining samarali tizimini shakllantirish, markazda va joylarda qonun chiqaruvchi va vakillik hokimiyatining vakolatlari hamda nazorat vazifalarining rolini kuchaytirish, sud tizimini liberallashtirish va uning mustaqilligini ta'minlash bo'yicha g'oyat dolzarb chora-tadbirlarni ko'rishga qaratilgan edi.

Bu jarayonda markaziy ijro etuvchi hokimiyatning boshqaruv tuzilmalari va ma'muriy organlarning vazifalarini o'zgartirishga, ularning boshqarish, tartibga solish va taqsimlash borasidagi vakolatlarini, xo'jalik tuzilmalari faoliyatiga bevosita aralashuvini keskin qisqartirishga katta e'tibor berildi. Boshqacha aytganda, ularning vakolatlarini bozor tamoyillariga muvofiqlashtirish va pirovard natijada davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi rolini jiddiy kamaytirish ko'zda

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, NMIU, 2011, 346-bet.

tutilgan edi<sup>2</sup>.

Boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalalariga katta ahamiyat qaratildi. Bugungi kunda O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini shakllanishini o'rganish eng dolzarb muammolardan biridir.

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabridagi qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2010, 3-bet.

## **I-bob. Mustaqillik va demokratik jamiyat qurilishining «O'zbek modeli»**

### **1.1. O'zbekistonda O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov tomonidan demokratik jamiyatga o'tishning nazariy, konseptual metodologiyasi ning ishlab chiqilishi**

O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov ilk bor davlat hokimiyati tepasiga sobiq Ittifoq davrida kelishi bilanoq, O'zbekistonning mustaqil rivojlanish yo'lini o'yladi va uni amalga oshirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarini ishga soldi. Prezidentimiz XX asr 90-yillaridayoq mustaqillik uchun kurash olib bordi. O'zbekistonni dunyoda o'z yo'li bilan rivojlanish imkoniyatiga egaligini isbotlab berdi. U dastlab, **birinchidan**, o'zbek tilining “Davlat tili” haqidagi qonunning qabul qilinishida bosh-qosh bo'ldi (1989 yil 21 oktyabr), **ikkinchi** navbatda mamlakatimizda O'zbekistonning o'z davlat ramzlari bo'lishi uchun (1991 yil 15 fevral) kurashdi, **uchinchidan**, mamlakatimizda Prezidentligini joriy etdi (1990 yil 24 mart), **to'rtinchidan**, “Mustaqillik Deklarasiyasi”ni qabul qilishda jonbozlik ko'rsatdi (1990 yil 20 iyun) va h.k. O'zbekiston Respublikasining 1-Prezidenti Islom Karimov O'zbekistonning demokratik jamiyatga o'tishining nazariy konseptual metodologiyasini 1992 yilda “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li”<sup>1</sup>, keyinchalik “O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li”<sup>2</sup> asarlarida ilmiy asoslab berdi. O'zbekistonning bozor islohotlaridan borish qonuniyatlarini ilmiy asosladi. Demak, Prezidentimiz ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni barpo etish uchun uning konseptual metodologiyasi mavjud bo'lishi lozim edi. Bu metodologiyaga ko'ra O'zbekiston demokratik, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish,

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., O'zbekiston, 1992.

<sup>2</sup> Karimov I.A. Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li. – T., O'zbekiston, 1992.

bozor islohotlarini bosqichma-bosqich shakllantirish yo'llarini belgilab berdi. Agar biz dunyo mamlakatlarida o'tish davrining turli ko'rinishlari: an'anaviy, inqilobiy va evolyusion ko'rinishlarining mavjudligini inobatga olsak, Prezidentimiz ana shu evolyusion yo'lda 1) mulkni davlat tasarrufidan bosqichma-bosqich chiqarish, erkinlashtirish, 2) ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, chunki bu barqarorlik makroiqtisodiy rivojlanishni belgilab beradi. 3) Pulning qadrsizlanishi uchun kurash, 4) xom-ashyo ishlab chiqaradigan mamlakatdan bozor munosabatlari sharoitida tayyor maxsulotlar ishlab chiqaradigan respublikaga aylantirishdek strategik vazifalarni belgilab berdi.

Prezidentimizning yana bir muhim demokratik jamiyat sari borishdagi yutug'i shundaki, u milliy davlatchilikni, davlat hokimiyatini tubdan isloh etish, uni asta-sekinlik bilan fuqarolik jamiyatiga bosqichma-bosqich o'tkazish vazifasini ko'rsatib o'tdi. Bu yo'lda 1995 yilga kelib katta ijobiy ishlar qilina boshlandi. O'zbekistonning rivojlanishida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish qonuniyatlari ishlab chiqildi.

2002 yilga kelib 9-sessiyada "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" (ular 7 ta) ishlab chiqildi. Bu borada davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, fuqarolar siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish bozor islohotlarini rivojlantirishning garovi ekanligi ta'kidlab o'tildi.

**1-chizma**

Ўзбекистонда ўтиш даврининг эволюцион	→	1. Республикада вужудга келган иқтисодий вазият, оилалар аксарият кўпчилигининг турмуш даражасининг пастлиги, эски тузумга мослашганлиги, уларнинг дунёқараши, моддий бойликларни яратишга бўлган муносабати, сиёсий маданияти етарли даражада эмаслиги бўлса
йўлини танланганлиги- нинг ўзига	→	2. Ташкилий, сиёсий, иқтисодий, молиявий- кредит тизмларини ўзгартириш, тегишли ҳуқуқий асосни, бозорнинг инфратузилмасини барпо этиш, ходимларни тайёрлаш учун вақт керак. Ишлаб чиқаришни тайёрлаш ва қайта жиҳозлаш учун талаб қилинадиган технологик вақт олиншини ҳам ҳисобга олиш керак.
хос сабаблари	→	3. Кишиларнинг тафаккурини одат тусига кирган қоидаларни ўзгартириш учун муҳимдир. Ҳар бир босқичда кишиларнинг тафаккурини ўзгаришларни қабул қилишга таёрлаб, уларни амалий ишлар билан янги тузумнинг афзаллигига ишонтириб бориш зарур.

Prezident I.A.Karimov tarixchi olim va jurnalistlar bilan bo'lgan uchrashuvda - "Hozir O'zbekiston deb ataluvchi hudud, ya'ni bizning Vatanimiz nafaqat SHarq, balki umumjahon sivilizasiyasi beshiklaridan biri bo'lganini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu-fuzalolar, olimu-ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan"<sup>1</sup> degan edi. Darhaqiqat, Movarounnahr oralig'ida paydo bo'lgan ulkan davlatchilik madaniy merosi insoniyat tarixi ibtidosida eng dastlabki hamda qadimiy davlatchilik madaniyati sifatida ma'lum. Mustaqilligimiz sharofati bilan bunday merosni milliy, demokratik qadriyatlarimizning muhim zamini bo'lgan o'rganish imkoniyatlari ochildi.

O'tmish, bugun va kelajak bir-biriga tutashgan bunday tarixiy paytlarda mustaqillik davrini kechirayotgan har bir davlat bir tomondan, demokratiya borasida jahon xalqlari orttirgan boy tajriba hamda undan millat manfaatlari yo'lida foydalanishni, ikkinchi tomondan esa, uni o'ziga xos noyob bir sharoitda joriy etish bilan bog'liq muammoga duch kelganligini tarixiy tajribalar ko'plab mamlakatlar misolida tasdiqlagan.

Karimov I.A O'zbekistonning rahbari sifatida asosan ikki narsani mushtarak

<sup>1</sup> Karimov I.A. Asarlar to'plami 7 jild. -T.: O'zbekiston, 1999, 132-bet.

holda olib bordi:

1. Mamlakatimizning o'z ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda rivojlangan mamlakatlarning ko'p asrlik tajribasini o'rganish va ularning bizga maqbul jihatlarini ijobiy jihatdan o'zlashtirish.

2. O'zbekiston xalqining turmush tarzi, mentaliteti va an'analariga tayanishdan iborat bo'ldi. Unga Islom Karimov tomonidan taklif qilingan besh asosiy tamoyil asos qilib olindi.

XX asr 50-yillardan keyingi yillarda ko'pchilik sobiq mustamlaka mamlakatlar o'z mustaqilligiga erishib, milliy davlat qurish yo'liga o'ta boshladilar. Bu vaqtda asosiy 3 taraqqiyot yo'li:

1) kapitalistik;

2) sosialistik;

3) milliy ozodlikka erishgan davlatlarning aralash yo'nalishi haqidagi qarashlar bor edi.

Adolatli demokratik jamiyat qurish, o'z millati, xalqi uchun farovon turmush sharoitini yaratish har qanday mustaqil davlatning asosiy maqsadi hisoblanadi. SHu ma'noda O'zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgandan so'ng oldiga xalqi uchun «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot» barpo etishdek o'ta muhim, shu bilan birga murakkab vazifani qo'ydi.

Ma'lumki, demokratik jamiyatga o'tish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Unga har bir millat, xalq, davlat, o'z yo'li, intilishi, aniq maqsadi, rejasi, shuningdek imkoniyatlarini hisobga olib erishadi. Hozirgacha demokratik jamiyatning barcha xalqlar va davlatlar uchun namuna, andoza bo'ladigan aniq bir shakli yoki ko'rinishi yo'q.

SHuningdek, demokratiyaga o'tishda u yoki bu davlatning umumjahon tizimida egallab turgan mavqei ham hisobga olinadi. Bu jarayonda o'sha mamlakatning aholisi tayyorgarligi, harbiy imkoniyatlari, ijtimoiy infratuzilmasi va aloqa vositalari hamda geografik joylashishi ham muhim ahamiyatga ega.

Istiqlol yillarida O'zbekistonning o'z manfaatlari xafvsizligini ta'minlash borasida erishgan ulkan yutuqlari yangi jamiyat qurishning milliy o'zbek modeli

hayotiy ekanligidan dalolat bermoqda. SHu erda qayd etish kerakki, mustaqillikning o'tgan qisqa davrida demokratik jamiyat qurish yo'lida O'zbekiston to'plagan tajriba shuni ko'rsatadiki, u yoki bu mustaqil davlatning jahon siyosat maydonidagi o'rnini boshqa birov belgilab bermaydi. Bu yo'lda e'tiborini jiddiy muammolarga qaratgan va yangi jamiyat qurish yo'lida paydo bo'ladigan barcha savollarga o'z vaqtida to'G'ri javob topa oladigan davlat dunyo voqealarining shiddatli o'zgarishlariga tayyor turadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va yangilanishlarning asosiy maqsadi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat qurish va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bu yuksak maqsadni ro'yobga chiqarishda barcha sohalarda, xususan, sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar katta rol o'ynaydi. O'zbekistonda bugungi kunda sud-huquq tizimida izchil amalga oshirilayotgan tub islohotlar, aslida, O'zbekiston hali davlat mustaqilligiga erishmasdan oldin I.A.Karimov rahbarligida boshlangan ishlarning davomidir. Buni "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" kitobidagi konseptual fikr va g'oyalar tasdiqlaydi.

"Mantiq" fanida hukm tushunchalarga tayanadi<sup>1</sup>. O'zbekistonning sud-huquq tizimi mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yangi asosda barpo etila bordi, deb xulosa chiqarishdan avval o'zak tushuncha ("sud-huquq tizimi")ning mazmunini anglashimiz, uning mohiyatini tushunib olishimiz lozim. SHunday ekan, so'zni avvalo "sud-huquq tizimi" tushunchasining ma'no-mazmunini yoritib berishdan boshlaymiz. "Sud-huquq tizimi" tushunchasi "sud tizimi" va "huquq tizimi" tushunchalarining birikmasidan iborat umumiy hosila tushunchadir. Demak, "sud tizimi" va "huquq tizimi" tushunchalarining mazmunini tushunish orqali "sud-huquq tizimi" tushunchasining mazmunini aniqlab olamiz.

Sud tizimi – bu o'z vakolatlari va oldiga qo'yilgan vazifalar hamda maqsadlarga muvofiq tuzilgan sudlar majmuidir<sup>2</sup>. O'zbekiston Respublikasining

---

<sup>1</sup> Masalan, qarang: Xayrullaev M., Haqberdiev M. Mantiq. – T.: "O'qituvchi", 1993. – 103-bet; Rahimov I. Logikadan amaliy mashg'ulotlar va metodik tavsiyalar (universitetlarning gumanitar fakultetlari talabalari uchun o'quv qo'llanma). – T.: "O'qituvchi", 1988. – 53-bet.

<sup>2</sup> Kostaskey V.A. Konstitutsiya Respubliki Uzbekistan. Slovar-spravochnik dlya uchashixsya obshchobrazovatelnyx shkol, kolledjey i liseev. – T.: "Bilim", 2003. – str. 107.



Zero, mustaqillik millat faoliyatining o'zagi bo'lib, jamiyat a'zolarining oldiga muttasil ravishda yangidan-yangi vazifalarni qo'yib boradi va bajarilishini talab qiladi. Taraqqiyotning har bir bosqichi – bu muammolar, ularning echimi va yangi vazifalardir.

Katta va kichik millatlar, davlatlar, qolaversa xalqaro hamjamiyat tajribasi shuni ko'rsatadiki, vujudga kelgan muammolar echimida sustkashlik qimmatga tushishi mumkin. Zotan, har qanday muammo boshqa qator muammolarni keltirib chiqaradiki, bu o'z navbatida har qanday davlat taraqqiyotini murakkablashtirib qo'yadi. Demak, mamlakat taqdiri uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olgan hokimiyat tuzilmasi bu borada bir nafas ham beg'amlikka berilmasligi, doimo sergak va uyg'oq bo'lishi lozim.

Ha, mustaqillik – tom ma'noda inson erki, ozodligi va haq-huquqlari bilan bog'liq bo'lgan ulkan qadriyat. Demak, har qanday mustaqil davlat o'z siyosiy mustaqilligini belgilashda fuqarolar taqdiri bilan bog'liq bo'lgan erkin jamiyat va ozod shaxs timsolida amal qilishi kerak. Zero, mustaqillik milliy taraqqiyot yo'lini erkin tanlash imkonini beradi va demokratiyani rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. Bunday tarixiy paytlarda bugungi kun va kelajak bir-biri bilan chambarchas bog'liq ikki muammoni echishni aniq talab qiladi. Bu, birinchidan, demokratiya borasida jahon xalqlari tajribasini olish, ikkinchidan undan aniq maqsad yo'lida, ya'ni vatan va millat ravnaqi manfaatlarini yo'lida samarali foydalanishdir.

Ma'lumki, o'zida dunyo tajribasini mujassamlashtirgan jamiyatni idora etish adolatli bo'ladi. Ammo bu G'arb demokratiyasini to'g'ridan-to'g'ri O'zbekistonga ko'chirish degani emas.

Albatta, O'zbekiston demokratik jamiyat barpo etar ekan, o'ziga xos va mos urf-odat va axloqiy qonunlar majmuasi, bosh qomusi – Konstitusiyasi, milliy boshqaruv uslubi, ya'ni davlatchilik va hayot tarziga ega bo'lishi kerak. Amalda

shunday bo'ldi ham. Natijada demokratiya O'zbekiston uchun nazariyadan amaliyotga yoki mavhumlikdan reallikka, aniqroq qilib aytganda «o'zbek modeli»ga aylandi.

SHunday qilib, O'zbekiston demokratiyaning o'ziga maqbul boshqaruv uslubini yaratdi. Bunda u vazminlik, bag'rikenglik, o'zaro hurmat va muruvvat, insof, adolat, vijdon, donolik, ajdodlar o'gitiga sodiqlik, jamoatchilik fikri, ko'nikmalari bilan hisoblashish kabi demokratik tamoyillarga tayandi.

XX asr oxirlariga kelib biron-bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini qat'iy qabul qilingan qoidalar doirasi bilan cheklab turish mumkin emasligi, taraqqiyot yo'llari (modellari) ancha keng ko'lam va maqsadga egaligi, ulardan birini tanlashda har bir mamlakat o'z ichki sharoitlaridan kelib chiqmog'i zarurligi ma'lum bo'ldi.

## **1.2. Demokratik jamiyat qurishning turli xil milliy modellari va O'zbekistonda uning o'ziga xos xususiyatlari. “O'tish davri”ning zarurligi**

Mustaqillikning ilk kunlarida O'zbekiston va o'zbek xalqi oldida biz qanday yo'ldan boramiz degan masala ko'ndalang bo'ldi. Bunda ikkita yo'l bor edi<sup>1</sup>. Birinchi, eski jamiyatni buzmay saqlab qolish; ikkinchi, mutlaqo yangi, erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyatga o'tish.

Albatta, birinchi yo'l oson edi. Unda hech narsa o'zgarmas edi. Biroq unda O'zbekiston jahon hamjamiyatiga kirolmas va o'z qobig'ida qolib ketar edi. Ikkinchi yo'l ancha qiyin va murakkab bo'lsada, demokratiya uchun, jahon hamjamiyati uchun yo'l ochib berar edi.

Xo'sh! vaziyatdan qanday chiqish, qaysi yo'lni tanlash kerak edi? Masalaga aniqlik kiritish uchun o'zbek xalqi va uning rahbariyati jahon mamlakatlari tajribasiga, xalqimiz mentaliteti va qadriyatlariga, davlatchiligimiz tarixiga tayanib ish ko'rdi.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., O'zbekiston, 1992, 47-48-betlar.

Tajriba esa yo'q edi. Natijada yurtboshimiz Turkiya, Xitoy, Malayziya, Janubiy Koreya kabi bir qator mamlakatlarga davlat tashrifi bilan bordi. Tajribalarni o'rgandi. Tabiiy, bu mamlakatlarning erkin demokratik jamiyatga o'tish, bozor iqtisodiyotini shakllantirishda o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga bizning xalqimiz mentaliteti va qadriyatlariga mos kelmaydigan jihatlari ham bor edi.

Bunday sharoitda o'z ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'limizni tanlab olish juda katta ahamiyatga ega edi. Bu yo'l O'zbekistonning o'tmishi, hozirgi kuni va kelgusi taraqqiyotiga to'la-to'kis mos keladigan mutlaqo yangi andoza, o'zimizga xos yo'l bo'lishi lozim edi.

Bu vazifani Karimov I.A o'zining 1992-1993 yillarda chop etilgan «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li», «O'zbekiston kelajagi buyuk davlat», «O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li»<sup>1</sup> kabi asar, risola va nutqlarida ilmiy-nazariy jihatdan har tomonlama ishlab chiqdi va asoslab berdi.

Bularda asosiy gap, bozor munosabatlariga o'tishda o'xshashi bo'lmagan, betakror yaxlit andozamizni ishlab chiqish, o'z yo'limizni yaratish haqida bormoqda edi. Bu yo'l quyidagi uch tarkibiy qismdan iborat bo'ldi:

- ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti milliy andozasi mohiyatini anglab etish;

- qat'iy markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan xo'jalik yuritishning bozor munosabatlariga asoslangan yo'lga o'tishning eng muhim prinsiplari;

- iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishning, tanglikdan chiqib olishning, barqarorlikni va muhim ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashning aniq yo'nalishlari.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T., O'zbekiston, 1998.686 b.

SHu asosda, Prezident I.A.Karimov tomonidan bozor iqtisodi siyosatiga asoslangan yangi demokratik jamiyatga o'tishning besh tamoyili yaratildi. Bular:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi va mafkuradan xoliligi;
2. Davlatning bosh islohotchi bo'lishligi;
3. Qonun ustuvorligi;
4. Kuchli ijtimoiy siyosat;
5. Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Ko'p o'tmay bu tamoyillar amaliyotda o'z isbotini topdi, ko'pchilik davlatlarda tan olindi, bozor iqtisodiyotiga o'tishning «o'zbek modeli» nomi bilan mashhur bo'ldi, tarixga kirdi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq «Islohotlar islohot uchun emas, islohotlar avvalo inson uchun» degan tamoyilning ilgari surilishi va izchil amalga oshirilishi buning isboti bo'ldi.

SHuni aytish joizki, Prezident I.A.Karimov tomonidan ilgari surilgan demokratik jamiyat qurish va bozor munosabatlariga o'tishning «o'zbek modeli» mintaqaga xos xususiyatlar va shart-sharoitlardan kelib chiqqan, xalq tomonidan yaxshi kutib olingani uchun ham tezda samara bera boshladi.

Bunga sabab shu ediki, «O'zbek modeli»da respublikamizning quyidagi xususiyatlari hisobga olindi:

- Respublikaning qulay jo'g'rofiy-siyosiy mavqega egaligi;
- Tabiiy-iqlim sharoitlarining o'ziga xosligi;
- Alohida demografik vaziyat mavjudligi, aholi tarkibida bolalar va o'smirlarning ko'pligi;
- Tabiiy boyliklar, unumdor er, qudratli iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy, insoniy va ma'naviy salohiyatning mavjudligi;
- Qudratli qishloq xo'jaligining mavjudligi;

- Mehnatsevar va iste'dodli, mehmondo'st xalqning yashashi va faoliyat ko'rsatishi.

SHunday qilib, mavjud ulkan resurslar, aql-ziyo va ishlab chiqarish potentsiali davlat mustaqilligi bilan birgalikda iqtisodiyotni yangilash, uni ma'rifiy rivojlanish yo'liga o'tkazishga doir tub islohotlarni amalga oshirishga haqiqiy shart-sharoit va imkoniyat yaratdi.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda O'zbekiston tanlagan yo'l inson manfaatlari to'la himoya qilingan, uning erki, ozodligi har tomonlama huquqiy kafolatlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish yo'lidir.

Biz qanday jamiyat barpo etmoqdamiz, degan masala Prezidentimizning «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» (1999), «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» (2002), «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» (2005), «Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari» (2009) kabi asarlarida ayniqsa o'zining tugal va mukammal ifodasini topdi. Unda qurilajak yangi jamiyatning ilmiy-falsafiy konstepsiyasi, jamiyat hayotini tubdan isloh etishning navbatdagi strategik vazifalari 2009-2012 yillarga mo'ljallangan inqirozga qarshi choralar dasturida ustuvor yo'nalishlar asoslab berilgan. Ana shu masalalarni bajarish milliy g'oyaning pirovard maqsadlarini belgilaydi va bu maqsadlarga etishga xizmat qiladi.

Bizning bosh strategik maqsadimiz - ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot, bozor iqtisodiyotiga asoslangan erkin demokratik jamiyat barpo etishdir. Bozor iqtisodiyoti, eng avvalo, ko'pmulkchilikka va ular o'rtasidagi raqobatga tayanadi. Unda mulkning barcha qonuniy shakllari teng huquqqa ega bo'lib, bu huquq davlat tomonidan kafolatlanadi.

Mustaqil taraqqiyot yo'liga chiqqan O'zbekiston uchun eng asosiy, bosh masala milliy davlatchilik poydevorini barpo etish, mustaqillikning siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini yaratish edi. Mazkur masalaga mustaqillikka

erishgan barcha mamlakatlar turli davrlarda duch kelishgan va ular bu masalani turlicha hal etishgan. SHu sababli ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy taraqqiyotning «SHved modeli», «Amerika modeli», «YApon modeli» kabi tushunchalar ishlatilmoqda. Mazkur tushunchalar zahirida muayyan mintaqa yoki mamlakatlar ijtimoiy taraqqiyotida siyosiy-iqtisodiy islohotlarni qaysi yo'l bilan, qay yo'sinda amalga oshirilishi bilan bir-biridan farqlanadi.

Mamlakatimizda eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimining ustunlari bo'lgan hokimiyat va boshqaruv organlari barham toptirildi. Jumladan, Sobiq Kommunistik partiyaning yakka hokimligiga chek qo'yildi. Joylardagi ijroiya hokimiyatining eski tizimi tugatildi.

Islom Karimovning «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» asari 1992 yilda yozildi. Asarda O'zbekiston taraqqiyotining o'ziga xos yo'li va demokratik jamiyat qurishning jahon taraqqiyoti tajribasi tahlil qilindi. Jahon taraqqiyotida: 1) Demokratiya va qonunchilik. 2) Mulkchilikning turli shakllari v unga munosabat. 3) YUksak ma'naviyat va madaniyatning rivojlanishi. 4) Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, jahon hamjamiyatiga kirish masalalari ko'rsatib berilgan. Asarda Markaziy Osiyo respublikalari ijtimoiy tuzumini o'zgartirish uchun quydagi masalalarga e'tibor qaratilgan. 1. Ma'muriy buyruqbozlik tizimidan demokratik, butun jamiyatning tuzilishiga o'tish. 2. Mulkchilikning begonalashuvi: rejali iqtisodiyotdan bozor iqtisodiyotiga o'tish. 3. Totalitar, aqidaparastlik mafkurasidan hurfikrlilikka, ko'ppartiyaviylikka, umuminsoniy ma'naviyatga amal qilish. 4. Jahon hamjamiyatiga kirib borish. Umuman, bu asarda demokratik huquqiy davlat va O'zbekistonni 125 mamlakat (bugungi kunda esa 170 ga yaqin)tan olganligi, 40 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqalar o'rnatilganligi bayon etilgan. O'zbekiston BMTga 1992 yil 2 martda qabul qilinganligi ko'rsatilgan. Umuman, bu asar 5 qism, bo'limlarni o'zida ifoda etadi. Bular:

1. O'z yo'limizning shart-sharoiti va zaminlari.
2. O'zbekiston-demokratiya va ijtimoiy adolat jamiyati.
3. Milliy manfaatlar ustuvorligi va teng huquqli hamkorlikka asoslangan tashqi siyosat.

4. Ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini qurish – mustaqil O'zbekiston ichki siyosatining negizlari.

5. Mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishning ma'naviy-axloqiy negizlari.

Umuman, ana shu asar Prezidentimiz tomonidan yozilgandan so'ng O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini qurishning huquqiy asoslari va tamoyillarini qabul qilish bilan birga, unda O'zbekistonning o'ziga xos xususiyatlari har tomonlama asoslab berildi. SHu asar yozilgandan so'ng jamiyatimizda siyosiy hayotning barcha sohalari, davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtirish, modernizastiyalash, diversifikastiyalash va vokalizastiyalashtirish jadallik bilan olib borilmoqda. Bizningcha, mazkur asarning tarixiy ahamiyati benihoya katta bo'lib, bu O'zbekiston fuqarolarining mustaqil taraqqiyot yo'lidan sobitqadamlik bilan rivojlanib borishining siyosiy va iqtisodiy yo'nalishlarini belgilab berdi. Xalqimiz o'zining nimalarga qodir ekanligini isbotlamoqda. Haqiqatan ham Prezidentimiz ta'kidlaganidek, «O'zbek xalqi hech qachon hech kimga qaram bo'lmaydi». Biz bu asarning tarixiy ahamiyatini shu boisdan ham beqiyos deb bilamiz.

1990 yil 20 iyunda “O'zbekiston Respublikasida Konstitusion nazorat to'g'risida” O'zbekiston Respublikasining Qonuni<sup>1</sup> qabul qilindi.

Davlat organlari va jamoat tashkilotlari hujjatlarining O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, Qoraqalpog'iston Respublikasida esa – Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitusiyasiga mos bo'lishini ta'minlash, shaxsning konstitusion huquq va erkinliklarini, O'zbekiston Respublikasi xalqlarining huquqlarini muhofaza qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasida konstitusion nazorat ta'sis etildi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitusion nazorat komitetining nazorat qilish vazifalari sudlarning hukmi va boshqa qarorlariga, tergov, prokuratura davlat

---

<sup>1</sup> Qonunning matni bo'yicha qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990 y., 16-18-son, 289-modda; 1991 y., 11-son, 273-modda; 1993 y., 5-son, 205-modda. O'zbekiston Respublikasining «O'zbekiston SSR Konstitusiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq mazkur Qonunning nomidagi hamda matnidagi «O'zbekiston SSR» degan so'zlar tegishli kelishikdagi «O'zbekiston Respublikasi» degan so'zlar bilan almashtirilgan. SHuningdek, «Qoraqalpog'iston ASSR» degan so'zlar tegishli kelishikdagi «Qoraqalpog'iston Respublikasi» degan so'zlar bilan almashtirilgan. Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Sovetining 1993 yil 6 maydagi 821-XII-son qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan

hakamligi organlarining grajdanlik, jinoiy, ma'muriy ishlariga doir qarorlariga taalluqli emas, deb belgilandi.

1990 yil 1 oktyabrda “O‘zbekiston SSJ Prezidenti Kengashining tarkibi to‘g‘risida” O‘zbekiston SSJ Prezidentining Farmoni<sup>2</sup> e‘lon qilindi. Farmon asosida O‘zbekiston SSJ Prezidenti Kengashining (14 kishidan iborat) a‘zolari tayinlandi.

1990 yil 31 oktyabrda “Milisiya xodimlarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoya qilishni kuchaytirish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining<sup>3</sup> Qonuni<sup>4</sup> qabul qilindi. Respublikaning etilgan iqtisodiy va ijtimoiy muammolarini hal etish fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishni kuchaytirishni, jinoyatchilikka qarshi kurash, jamoat tartibini saqlash yuzasidan kechiktirmay chora-tadbirlar ko‘rish zarurligini taqozo etdi. Bunday sharoitda milisiya xodimlari xavfsizligini, ularning sha‘ni va qadr-qimmatini himoya qilish g‘oyat muhim ahamiyat kasb etdi. Milisiya xodimlarini o‘ldirish, qurolini olib qo‘yish maqsadida ularga hujum qilish, ularning xizmat faoliyatiga aralashish hollari oz emas edi. Bu esa mehnatkashlarning adolatli noroziligini keltirib chiqardi. SHu bois milisiya xodimlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida mazkur qonun qabul qilindi. Unga ko‘ra, milisiya xodimlari davlat hokimiyatining vakili ekani, davlatning alohida himoyasida bo‘lishi belgilab qo‘yildi.

---

<sup>2</sup> Farmonning matni bo‘yicha qarang: O‘zbekiston Sovet Socialistik Jumhuriyati Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990 y., 28–30-son, 335-modda.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasining 1991 yil 30 sentyabrdagi 364-XII-son «O‘zbekiston SSR Konstitusiyasi (Asosiy Qonuni)ga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida»gi Qonuniga muvofiq mazkur Qonunning nomidagi hamda matnidagi «O‘zbekiston SSR» degan so‘zlar tegishli kelishidagi «O‘zbekiston Respublikasi» degan so‘zlar bilan almashtirilgan

<sup>4</sup> Qonunning matni bo‘yicha qarang: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990 y., 31-33-son, 355-modda; O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 6-son, 121-modda

## **II bob. Fuqarolik jamiyatining shakllanishi**

### **2.1. Mustaqil O'zbekistonda shakllantirilayotgan fuqarolik jamiyati**

**FUQARO** – konstitusiyaviy va fuqarolik huquqida jismoniy shaxs sanalib, rasmiy jihatdan (ya'ni hujjatga ega bo'lib) biron-bir davlatga tegishli hisoblanadi. Fuqaro o'zi yashab turgan davlat bilan doimo munosabatda bo'ladi. SHunga ko'ra fuqaroning davlatning konstitusiyasi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida belgilab qo'yilgan huquqi, erkinliklari va majburiyatlari ya'ni, huquqiy maqomi mavjud bo'ladi.

«Fuqaro» termini shaxsning o'zi yashab turgan davlat va jamiyatning siyosiy hayotida davlatning va jamiyatning boshqaruv ishlarida ishtirok etishini ko'zda tutadi va shu orqali mazkur davlatdagi chet el fuqarolari va fuqaroligi yo'q shaxslardan farq qiladi.

Dunyoda «fuqaro» terminidan tashqari yana «inson» termini ham mavjud bo'lib, har qanday individning hayotiy faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan huquq va erkinliklar (ya'ni nafaqat fuqaro, chet el fuqarosi va fuqaroligi yo'q shaxs) masalan, shaxs erkinligi, yashash huquqi kabi huquqlar, erkinliklar insonga ham tegishlidir, deyiladi. SHuning uchun huquq, erkinlik va majburiyatlar haqida so'z

yuritganda ular fuqaro va insonlarga tegishli deb aytiladi<sup>1</sup>.

«Fuqaro» termini «xalq» termini bilan uzviy bog'liqdir. O'zR Konstitusiyasining 8-moddasida «O'zbekiston xalqini millatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tashkil etadi», – deb yozib qo'yilgan. O'zbekistonda tug'ilgan, uning zaminida istiqomat va mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy va irqiy mansubligidan qat'i nazar, respublikamizning teng huquqli fuqarosi bo'lib hisoblanadi.

**FUQAROLIK JAMIYATI** – huquqiy davlatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy poydevori hisoblanadi.

O'zR Prezidentining biron-bir asari yo'qki, unda «fuqarolik jamiyati» atamasi tilga olinmagan bo'lsin. «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga ochiq tashqi siyosatga ega bo'lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir, – deb ta'kidlaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov.

**«Fuqarolik jamiyati» atamasining o'zi keng va tor ma'nolarda qo'llaniladi. Keng ma'noda** fuqarolik jamiyatiga jamiyatning davlat va uning tuzilmalari tomonidan bevosita qamrab olinmagan qismlari, ya'ni davlatning «qo'li etmaydigan» barcha sohalar kiritiladi. Fuqarolik jamiyati keng ma'noda demokratiya bilan mos keladi.

Fuqarolik jamiyati **tor ma'nosida** huquqiy davlat bilan uzviy bog'langandir, ular bir-birisiz mavjud bo'la olmaydi. Fuqarolik jamiyati davlat tomonidan ta'qib etilmaydigan erkin va teng huquqli individlarning bozor va demokratik huquqiy davlatchilik sharoitidagi o'zaro munosabatlari turli-tumanligini ifodalaydi. Fuqarolik jamiyati burjua davrining zulmatidan individlarning ozodlikka chiqishi natijasi, ularning davlat fuqarolaridan shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usiga ega bo'lgan va o'ziga xo'jalik hamda siyosiy mas'uliyatni olishga tayyor bo'lgan erkin mulkdor–fuqarolarga aylanishidir<sup>1</sup>.

Iqtisodiyot va ijtimoiy munosabatlarga aralashmaydigan ilk liberal davlat va

---

<sup>1</sup> Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., «SHarq», 2004, 331-332-betlar.

<sup>1</sup> Matyakubov SH., Bobajanov J. Fuqarolik jamiyati barpo etishda inson huquqi masalalarining tutgan o'rni. – T., 2001, 13-bet.

erkin raqobat zamonlaridan tubdan farq qiluvchi hozirgi sharoitlarda fuqarolik jamiyati va davlat o'rtasida aniq chegara o'tkazish ancha murakkab.

SHunday qilib, fuqarolik jamiyati – bu oddiy xalyolparastlik emas, balki real voqelikdir. Bu erda so'z qonun va adolat hukmronlik qiladigan, inson, uning hayoti, huquqlari va erkinliklari eng buyuk qadriyat bo'lgan jamiyatni tashkil etish haqida boradi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining shakllanishi mulkni oqilona va izchil ravishda davlat tasarrufidan chiqarish, byurokratiya apparatini qisqartirish va mo'tadillashtirish, ko'p partiyali tizimni rivojlantirish, ishlab chiqarishni rivojlantirishga rag'bat berish, maqbul ijtimoiy dasturlar ishlab chiqish singari omillarga bog'liq. Bu nuqtai nazardan fuqarolik jamiyatiga xos bo'lgan asosiy munosabatlarni qaror toptirish va tartibga solish o'ta muhimdir.

Mafkuraviy mustaqillikka erishish ham taraqqiyotning muhim omillaridan biri. Mustaqillik mafkurasi, milliy uyg'onish millatning o'z tarixi va taqdirini chuqur tushunishi, milliy ongi o'sishi, milliy qadr-qimmatini asrashi, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'usi kuchayishi bilan bog'liqdir. YUksak milliy ong bo'lmagan joyda to'laqonli milliy mustaqillik ham, milliy mafkura ham bo'lmaydi.

Mustaqillik uchun kurash turli shakllarda bo'lishi mumkin:

1. Ko'plab mamlakatlar va xalqlarning o'z ozodligi uchun xalqaro imperializm va kommunistik hukmronligiga qarshi birgalikda kurashi.

2. Har bir mamlakat, millat o'zining mustaqilligi uchun kurashi.

3. Umuman, milliy mustaqillikning jamiyat taraqqiyoti tezlashishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri quyidagilardir:

4. Mustaqillik tufayli har bir mamlakat va millat o'z iqtisodiy imkoniyatlaridan, ishlab chiqaruvchi kuchlaridan ularning ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik oqibatlarini to'la hisobga olgan holda, oqilona foydalana oladi.

5. Fan-texnika taraqqiyoti borasidagi yutuqlar ayrim davlatlarning monopoliyasi bo'lib, barcha mamlakatlarda ularning keng qo'llanishiga imkon yaratiladi.

6. Barcha mustaqil mamlakatlar o'rtasida tenglik, teng huquqlilik va hamkorlikka asoslangan yangi iqtisodiy, siyosiy munosabatlar o'rnatilishi mumkin bo'ladi.

7. Jahonning tabiiy resurslaridan butun insoniyat va kelajak avlodlar manfaatlarini ko'zlab, oqilona foydalanish yo'liga o'tish mumkin bo'ladi.

8. Milliy va irqiy munosabatlardagi barcha adolatsizliklarga, tengsiz-liklarga chek qo'yilib, har bir xalq ma'naviyati, milliy xususiyatlari, qadriyatlarini erkin rivojlantira olishiga sharoit yaratiladi, milliy, umuminsoniy qadriyatlar birgalikda rivojlanishiga imkoniyat yuzaga keladi.

9. Jahondagi xalqlar, mamlakatlarning iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyo-tini muvofiqlashtiruvchi xalqaro tashkilotlar faoliyatini har tomonlama rivojlantirishga sharoit tug'iladi<sup>1</sup>.

Oliy Majlisning 9-sessiyasida (2002 yil 29 avgust) Prezident Islom Karimov «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» haqida ma'ruzasida demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishning quyidagi ustuvor vazifalarini belgilab berdi:

1. Tengsiz oliy ne'mat - mustaqillikni bundan buyon ham asrab-avaylash, himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi.

2. Ikkinchi ustuvor yo'nalish. Bu - mamlakatimizda xavfsizlik, barqaror-likni, davlatimizning hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsizligini, fuqarolarimizning tinchligi va osotaligini ta'minlashdan iborat.

3. Bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzil-masini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat.

4. Jamiyatimizni yanada rivojlantirish va sifat jihatdan yangilash borasidagi to'rtinchi eng muhim ustuvor yo'nalish - bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkorlikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligini ta'minlaydigan demokratik tamoyillarni so'zda yoki

---

<sup>1</sup> Matyakubov SH., Bobajanov J. Fuqarolik jamiyati barpo etishda inson huquqi masalalarining tutgan o'rni. – T., 2001, 14-bet.

qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir. «To'rtinchi hokimiyat» maslasi aytildi.

5. Fuqarolik jamiyatini shakllantirishning eng muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» tamoyilini amalga oshirish. Qonun ustuvorligi...

6. Sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha boshlangan ishlarni izchil davom ettirish. Qaerda sud mustaqil bo'lmas ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar.

7. Islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir. Bunda demografik va boshqa milliy, diniy xususiyatlarimiz hisobga olinishi kerak. Ma'naviyat, axloq-odob, ma'rifat kabi qadriyatlar...

O'zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishishdan iborat o'z yo'li respublikani rivojlantirishning milliy istiqloq g'oyasiga asoslangan quyidagi asosiy o'ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olishga asoslanadi.

1. Avvalo, u aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an'analari va urf-odatlaridan kelib chiqadi.

2. Respublikadagi o'ziga xos demografik vaziyat - g'oyat muhim xususiyatlardan biridir. Aholi tarkibida 60 foizdan ko'prog'ini bolalar, o'smirlar, 25 yoshgacha bo'lgan yigit-qizlar tashkil qiladi...

3. Respublikaning yana bir xususiyati - aholi milliy tarkibining o'ziga xosligidir. Etnik tarkibda tub aholi ustun mavqeini egallaydi.

4. Keyingi o'n yillar mobaynida ma'lum qadriyatlarga ega bo'lgan kishilarning muayyan ijtimoiy ongi shakllandi: a) ijtimoiy tenglik kafolatlandi; b) ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan mulkchilik munosa-batlari begonalashtirilganligi bilan xarakterlanadi. Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma yig'ilishida ta'kidlaganidek, «boshqariladigan iqtisod», «boshqariladigan demokratiya» deb

atalmish modellar bizga mutlaqo to'g'ri kelmaydi. Yangilangan jamiyatning siyosiy va davlat tuzilishi insonga uning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy turmush tarzini erkin tanlab olishini kafolatlab berganligi bilan xarakterlanadi.

5. Oila - jamiyatning negizi. Bizning davlatimizni katta bir oila deb tushunish mumkin.

“Fuqarolik” sifatlovchi, o'zining shartligiga qaramay, boy mazmunga ega. Ushbu atama ma'nosi olimlar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Biroq, fuqarolar istiqomat qiluvchi har qanday jamiyat ham fuqarolik jamiyati deb amalmasligi hammaga ravshan. Zotan huquq amal qiladigan har qanday davlat ham huquqiy bo'lavermaydi. Misol uchun sobiq SHo'ro jamiyati hech qachon fuqarolik jamiyati bo'lmagan, shuningdek, hech qachon huquqiy davlat ham bo'la olmagan. SHunisi qiziqki, ko'p vaqtlardan ma'lum bo'lgan fuqarolik jamiyati tushunchasi sobiq shurolar makonida huquqshunos olimlar uchun nisbatan yangi va bo'sh ishlangan mavzu bo'lib qolgandi. SHuning uchun ham ushbu g'oyaning o'zi ijtimoiy ongimizda juda kam tarqalgan. Huquqiy davlat g'oyasi ancha ko'proq qaror topgan.

Mamlakatimizda huquqiy demokratik davlat, fuqarolik jamiyati barpo etish yo'lida avvalambor asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri milliy armiyani shakllantirishdir.

## **2.2. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy-ahloqiy asoslari va uni rivojlantirish omillari**

***Erkinlik*** - kishilar faoliyati bilan tabiat va jamiyatning ob'ektiv qonuniyatlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishi asosida faoliyat olib borish va hayot kechirish zarurligini ifodalovchi tushuncha.

Milliy istiqlol g'oyasi va mafkurasi shaxs erkinligi g'oyasiga tayanadi. O'z haq-huquqini taniydigan, ayni paytda o'z manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'unlatiradigan insongina milliy g'oyamiz tamoyillarini to'g'ri baholay oladi. ***Demokratiya*** (yunon. «demos» xalq va «kratos» hokimiyat) - xalq hokimiyati, fuqarolarning ozodligi va tengligi tamoyillarini e'lon qilishga

asoslangan siyosiy tuzum shakli. Demokratiya asosida qiziqish, intilish va manfaatlarni mutanosib-lashtirish, muvofiqlashtirish, murosaga keltirish va kelishish siyosati yotadi. SHu ma'noda demokratiya jamiyatdagi kuchlarni birlashtirishga, mamlakat salohiyatini taraqqiyot uchun safarbar qilishga xizmat qiladi.

Forobiyning «Fozil odamlar shahri» asarida demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri bo'lgan **qonunlarni** joriy qilish muammosi keng yoritilgan. Forobiyning fikriga ko'ra, chinakam qonun o'rnatuvchi yangi qonun qabul qilinayotganida mamlakatdagi barcha tabaqalar, avlodlarga, viloyatlar aholisiga baxt-saodat, shod-hurramlik, erkinlik va farovonlik keltiri-shini hisobga oladi. Qonun turli-tuman fe'l-atvor hamda xislatlarga ega bo'lgan odamlar xayrixohlik bilan kutib olishiga arziydigan bo'lishi zarur<sup>1</sup>.

Forobiyning fikriga ko'ra, saodatga oqillik va unga hamisha intilib yashash orqali erishish mumkin. SHunday ekan, qonun mustahkam ruh va oqil idrok tarbiyasiga yo'naltirilgandagina farovonlik tomon etaklaydi. Demak, rahbar xalq, ommani tarbiyalashga, uning ruhi va idrokini mustahkamlashga harakat qilmog'i zarur.

Bugungi kunda barpo etilayotgan jamiyatning oliy maqsadlaridan biri insonlarning farovon hayotini ta'minlashdir. Jamiyatni boshqarishda odamlarni farog'otda yashashga imkon beruvchi, birdamlikka etaklovchi, intizomni shakllantiruvchi qonunlarni yaratish ayni biz ko'zlagan maqsadga xizmat qiladi. XX asr boshlarida ozod yurt qayg'usida yashagan Abdulla Avloniy fikricha, «Har bir mamlakatning saodati, davlatlarning tinchi va rohati - yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdir».

Forobiy va Avloniy turli davrlarda yashasada, odamlarni erkin va farovon jamiyatga **tarbiya orqali** etkazishga da'vat qilganlar.

Forobiy fikriga ko'ra, fozil jamiyat aholisining nazariy qarashlari va amaliy ishlariga nisbatan begona g'oyalar asta kirib olib, ularning qarashlarini o'zgartirib yubormasligi kerak. Zero, inson baxt-saodat nimaligini tushungan bo'lsayu, unga

---

<sup>1</sup> Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – T., 24-bet.

erishishni maqsad qilib olmasa, g'oya va xohishiga aylantirilmagan bo'lsa, unga nisbatan ozgina bo'lsada, shavq va zavq sezmasa, istak va mulohazasini, kuch va quvvatini boshqa narsalarga sarflasa, bu qilmishlari noo'rindir.

Umuman, *farovon jamiyat g'oyasi* mustaqil va barqaror taraqqiyot yo'liga kirayotgan jamiyatlar uchun ikki hissa qadrlidir. Uning umuminsoniy jihatlariga, demokratik mohiyatiga ulkan e'tibor berilayotganligi tabiiydir. Zero, mamlakatimizda farovon, ilg'or jamiyat *barpo etish - maqsad*, amalga oshirilayotgan islohotlar - *vosita* bo'lib, jamiyatimizda hukm surayotgan ijtimoiy-siyosiy barqarorlik, o'z navbatida, islohotlar uchun *shart-sharoitdir*. Qadimgi yunon faylasufi (mil.avv. 384-322) Arastu fikricha, «maqsad emas, balki unga etish vositalari hal qiluvchi o'rinni egallaydi».

Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida «Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir» mavzuidagi ma'ruzasida «Bizning asosiy uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi - bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir»<sup>1</sup>, - degan edi.

*Fuqaroli jamiyati* - iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayot sohasiga to'g'ri keladigan tushunchadir. Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

Bugungi kunda fuqarolik jamiyati tashkilotlari haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Ular so'nggi yillarda davlat sektori va xususiy tijorat sektori bilan bir qatorda ijtimoiy va iqtisodiy faoliyatning tamoman yangi bir qismi sifatida shakllandi.

**Fuqarolik jamiyatining tuzilishi** deganda ijtimoiy munosabatlar,

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. – T., O'zbekiston, 2005, 34-bet.

fuqarolarning turli ixtiyoriy tashkilotlari, ularning uyushmalari, lobbistik va boshqa guruhlar, munisipal kommunalar, xayriya jamg'armalari, ijodiy sport, matlubot jamiyatlari, ijtimoiy-siyosiy, diniy va boshqa tashkilotlari hamda uyushmalarining keng tarmog'i tushuniladi.

Fuqarolik jamiyati tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

- 1) Odamlarning ixtiyoriylik asosida tashkil topgan birlamchi jamoalari (oilalar, ushmas, birlashmas, xo'jalik korporatsiyalari, jamoat tashkilotlari, kasbiy, ijodiy, etnik, konfessional va boshqa uyushmalar).
- 2) Jamiyatdagi nodavlat nosiyosiy munosabatlar: iqtisodiy, ijtimoiy, oilaviy, ma'naviy, diniy va boshqa munosabatlar majmui, odamlarning ishlab chiqarish sohasidagi va shaxsiy hayoti, ularning urf-odatlar, an'analari, axloqi.
- 3) Davlat hokimiyatining to'g'ridan-to'g'ri aralashishidan qonunlar bilan muhofaza qilingan erkin shaxslar va ular tashkilotlarining o'zini-o'zi namoyon etish sohasi.

O'z a'zolarining moddiy, ijtimoiy va ma'naviy ehtiyojlarini to'laqonli qondirish fuqarolik jamiyatining asosiy funksiyasidir. Fuqarolik jamiyati boshqa bir qator muhim ijtimoiy funksiyalarni ham bajaradi:

1. Qonuniylik asosida u shaxs va fuqaroning shaxsiy hayoti sohalari ni davlat va boshqa siyosiy tuzilmalarning asossiz qattiqqo'llik bilan tartibga solishdan himoya qiladi.
2. Fuqarolik jamiyati tashkilotlari negizida jamiyatning o'zini-o'zi boshqari sh mexanizmlari vujudga keladi va rivojlanadi.
3. Fuqarolik jamiyati siyosiy hokimiyatning mutlaq hukmronlikka intilishiga monelik qiluvchi muhim va kuchli vositalardan biri hisoblanadi. U davlatning noqonuniy aralashishidan himoya qiladi.
4. Fuqarolik jamiyatining institutlari va tashkilotlari shaxsning huquq va manfaatlarini real kafolatlashi, barcha davlat va jamiyat ishlarida ishtirok etishda teng imkoniyatlar berishi kerak.
5. Fuqarolik jamiyati, o'z a'zolariga nisbatan ijtimoiy nazorat funksiyasini ham bajaradi.
6. Fukarolik jamiyati, aloqa bog'lash funksiyasini ham bajaradi.

7. Fuqarolik jamiyati o'z institutlari va tashkilotlari bilan barqarorlashtirish funksiyasini bajaradi.

O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining quyidagi institutlari shakllanib bormokda:

- 1) siyosiy partiyalar;
- 2) ijtimoiy-siyosiy harakatlar;
- 3) demokratik saylov tizimi;
- 4) jamoa birlashmalari;
- 5) nodavlat notijorat tashkilotlari;
- 6) ommaviy axborot vositalari;
- 7) oila hamda uning manfaatlarini aks ettiruvchi maxsus tashkilotlar;
- 8) ta'lim-tarbiya muassasalari;
- 9) fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari;
- 10) diniy tashkilotlar;
- 11) milliy-madaniy markazlar;
- 12) jamoatchilik fikrini o'rganish institutlari;
- 13) mahalla;
- 14) mahalla qo'mitalari;
- 15) Qishloq fuqarolik yig'inlari.

Fuqarolik jamiyati va davlat tuzilishini quyidagi chizma asosida izohlash mumkin.

Siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, kooperativlar, ishbilarmonlar uyushmalari, klublar va boshqalar fuqarolik jamiyatining yadrosini tashkil etadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «fuqarolik jamiyati mavjud bo'lmagan joyda siyosiy kelishuvning ham bo'lmasligi o'z-o'zidan ayondir». Zero, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish degani davlatning kuchliligi yo'qoladi, degani emas, fuqarolik jamiyati qanchalik taraqqiy topgan bo'lsa, davlatdagi birdamlik, barqarorlik va uyg'unlik shunchalik mustahkam bo'ladi.

Prezident Islom Karimov «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini 1998 yilda «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatda ko'targan edi. Milliy istiqlol g'oyasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan uyg'un bo'lib, ularning ikkalasi ham komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. «Beshinchidan, degan edi yurtboshimiz, - biz fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu maqsad dastlabki, ammo muhim qadam qo'yildi.

Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalaning mohiyatini atroflicha yotirish, uni hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirish nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizning ham eng muhim dolzarb vazifasidir. Taraqqiyotning umumbashariy qonuniyatlari, insoniyatning ko'p yillik hayotida sinovlaridan o'tib, ijobiy natijalar bergan tajribalar xuddi shu yo'lni taqozo etadi.

Biz bir narsani yaxshi anglab olishimiz kerakki, umumiy va maxsus bilimlarga ega ongli, tafakkur ham har xil «izmlar»dan ozod, zamonaviy dunyoqarash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga voris bo'lgan insonlarga fuqarolik jamiyatini barpo etishga va uni yanada takomillashtirishga qodir bo'ladi.

Bu modeldan ko'zlangan yana bir maqsad bor. Uning vositasida biz dunyodan munosib o'rin olishga, o'zbek nomini yanada keng yoyib tarannum etishga erishamiz.

Prezident Islom Karimov «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini keyinchalik «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda» asarida rivojlantirdi. YUrtboshimiz ta'kidlaganidek, har bir inson jamiyatdagi o'z o'rnini belgilashi, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etishi darkor.

So'nggi besh yil ichida jamoat birdlashmalari va nodavlat tashki-lotlar soni 1500 taga ko'payib, bugun ularning soni 2300 taga etdi. Ular faqat aholi fikrining turli ko'rinishlarini ifoda etib qolmasdan, odamlarning ijtimoiy fikrini shakllantirishga ham faol ta'sir ko'rsatmoqda»<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O'zbekiston, 1999, 22-bet.

**FUQAROLIK JAMIYATINING MA'NAVY-AXLOQIY  
RIVOJLANISHI**

ASOSLARI	NEGIZLARI	OMILLARI
Ma'naviyat	Milliy ma'naviy qadriyatlarga sodiqlik	Oila
Madaniyat	Umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik	Aholi sihat-salomatligi
Ma'rifat	Xalqning ma'naviy merosini mustahkamlash	Fuqarolar ma'naviy salohiyati
	Insonning o'z imkoniyatlarini erkin namoyon qilishi	Ziyoli kadrlar
	Vatanparvarlik	

Mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qaror toptirishning dastlabki huquqiy asoslari barpo etildi:

1. 1993 yil 2 sentyabrda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.
2. 1999 yil 14 aprelda «Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.
3. 1999 yil 14 aprelda «Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida»gi qonun qabul qilindi.
4. 2003 yil 12 dekabrda «fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqol) va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida»gi qonun qabul qilinib, bunda «Oqso-qollar» kengashiga katta imtiyozlar yaratildi.

Prezident Islom Karimov 2002 yil 29 avgustda Oliy Majlisning 9-

sessiyasida «O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari» haqida ma'ruza qildi.

Bizning vazifamiz mamlakatimizni, jamiyatimizni demokratlash-tirish hamda yangilash yo'lidagi harakatlarimizni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish va so'zsiz bu borada amalga oshirgan ijobiy ishlarimizni qat'iyat bilan davom ettirish, ularni xalqimiz orzu qilgan marralarga etkazishdir.

Ana shunday maqsadlarni o'zida mujassam etgan dasturning negizini quyidagi ustuvor vazifalar tashkil etadi:

**1. Biz uchun eng asosiy, eng muhim ustuvor maqsad tengsiz oliy ne'mat - mustaqillikni bundan buyon ham asrab - avaylash,** himoya qilish va mustahkamlash bo'lib qolaveradi.

**2. Ikkinchi ustuvor yo'nalish.** Bu - mamlakatimizda xavfsizlik va barqarorlikni, davlatimiz hududiy yaxlitligini, sarhadlarimiz daxlsiz-ligini, fuqarolarimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlashdan iborat.

**3. Uchinchi ustuvor yo'nalish.** Bu - bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, kuchli bozor infratuzilmasini yaratish, barqaror va o'zaro mutanosib, mustahkam iqtisodiyotning muhim sharti bo'lgan erkin iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishdan iborat.

**4. Eng muhim ustuvor yo'nalish** - bu inson huquqlari va erkinliklarini, so'z va matbuot erkinligini, shuningdek, oshkoralikni, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqqligini ta'minlaydigan demokratik tamo-yillarni so'zda yoki qog'ozda emas, amaliy hayotda joriy qilishdir. Ommaviy axborot vositalari tom ma'noda «to'rtinchi hokimiyat» darajasiga ko'tarilmog'i lozim.

**5. Beshinchi ustuvor yo'nalish** - fuqarolik jamiyatini shakllanti-rishning muhim sharti bo'lib, bu jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tashkilotlarining o'rni va ahamiyatini keskin kuchaytirishdan iborat. YOki boshqacha qilib aytganda, bu - «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» degan tamoyilni amalda hayotga joriy etish demakdir. «Adolat qonun ustuvor-ligida» amalga oshadi.

**6. Oltinchi ustuvor yo'nalish** - bu sud-huquq sohasini isloh qilish bo'yicha

boshlangan ishlarni izchil davom ettirishdan iborat. Qaerda sud mustaqil bo'lmagan ekan, shu erda qonun talablari va adolat buzilishi muqarrar.

**7. Ettinchi ustuvor vazifa** - bu barcha islohotlarimizning bosh yo'nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir.

Prezident Islom Karimov 2005 yil 28 yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasida yuqorida zikr etilgan maqsad va yo'nalishlarning barchasi avvalo mamlakatimizni modernizatsiya qilish borasida uzoqni ko'zlaydigan «Kuchli davlatdan - kuchli fuqarolik jamiyati sari» degan tamoyilni o'zida nazarda tutganligini yana bir bor bayon etdi. Bunda nimalar nazarda tutiladi?

**1. «Avvalambor,** hokimiyat vakolatlarining ma'lum bir qismini markazdan mahalliy hokimiyat organlariga o'tkazishga qaratilgan mavjud qonun va huquqiy hujjatlarni bir tizimga keltirish va ularga qo'shimcha tarzda yangilarini ishlab chiqish. *Yana bir muhim vazifa* - o'zini o'zi boshqarish organlari - mahalla, mahalla qo'mitalari va qishloq fuqarolik yig'inlarining roli hamda vakolatlarini amalda kuchaytirish lozim.

**2. Ikkinchidan,** siyosiy partiyalar va fuqarolik institutlarining davlat ahamiyatiga molik eng muhim qarorlarni qabul qilishdagi roli va ta'sirini tubdan kuchaytirish...

Odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlashda, ularning siyosiy va fuqarolik faolligini oshirishda, mamlakatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlarning ko'lamini kengaytirish va chuqurlashtirishda bu tashkilotlarning o'rni va ahamiyati beqiyosdir».

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, erkin fuqarolik jamiyatini barpo etish va rivojlantirish – bizning bosh strategik maqsadimiz, chunki bunday jamiyatda inson, uning huquqlari, erkinliklari hamda manfaatlari oliy qadriyat hisoblanadi.

## Xulosa

Fuqarolarning siyosiy huquq va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlari yaratilgan va ular amalda samarali joriy etilmoqda. Mamlakatda besh mingdan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Jamiyat va davlat qurilishi sohasida siyosiy partiyalarning roli sezilarli darajada oshdi. Mustaqil ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari rivojlanib bormoqda. Ular aholining siyosiy, ijtimoiy faolligini oshirish, mamlakatni demokratik yangilash va modernizasiya qilishning qudratli omili bo'lib xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim natijalaridan biri ijtimoiy himoya siyosatining demokratik jamiyatni barpo etishdagi o'rnini va ahamiyatining ortib borishi bilan belgilanmoqda. "Bugungi kunda ijtimoiy hayot sohasidagi salbiy holatlarni bartaraf etib, odamlar turmush darajasining keskin pasayib ketishiga yo'l qo'ymasdan, aholining himoyaga muhtoj qatlam va

guruhlarini ijtimoiy muhofazasini ta'minlagan holda O'zbekistonda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni va fuqarolar totuvligini saqlab qolishga muvaffaq bo'ldik"<sup>1</sup>.

Darhaqiqat, O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishda adolat omili muhim o'rin tutadi. SHu ma'noda adolat tushunchasi, uning erkinlik, demokratiya va barqaror taraqqiyot g'oyalari bilan mushtarak jihatlari bugungi kunda ham zamonaviy mazmun kasb etmoqda.

Mustaqil O'zbekiston xalqi kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari intilib, o'zini-o'zi boshqarish, erkinlik, ijtimoiy adolat va insonparvarlik kabi maqsadlar sari bormoqda. Bugungi kunda ana shu ezgu maqsadlarga erishish uchun barcha huquqiy asoslar yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda hayotimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-mahnaviy sohalarini tartibga solib turuvchi qonunlarimiz buning yaqqol ifodasidir.

Aholining, ayniqsa yoshlarning qonunlar, farmonlar va hukumat qarorlaridan o'z vaqtida xabardor bo'lib turishi, yuridik hujjatlarning mazmuni va mahnosini aniq anglab etishi katta ahamiyatga ega.

Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Bu borada 1997 yilning 29 avgustida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi" qabul qilingan edi.

Dastur mohiyat-ehtibori bilan ijtimoiy-siyosiy, ayniqsa, iqtisodiy islohotlar va bu borada qabul qilingan qonunlar mohiyatini aholiga etkazishga ko'maklashishga qaratilgani bilan katta ahamiyatga ega.

Dastur mohiyati keng qamrovli bo'lib, u bog'chada tarbiyalanayotgan bolalardan tortib, maktab va kasb-hunar kollejlari o'quvchilari, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalargacha huquqiy targ'ibot ishlaridan bahramand bo'lishini nazarda tutadi.

YOshlar - kelajagimiz, Vatan kelajagi yoshlar qo'lida. YOshlarni mahnaviy va

---

<sup>1</sup> Qarang: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi (2002 yil 29-30avgust) ma'ruzasida bayon etilgan asosiy vazifalar va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar Dasturi. -T.: O'zbekiston, 2002. B.10.

jismoniy barkamol qilib tarbiyalash esa davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Maqsad, yoshlar fidokor, vatanparvar, erkin fikrli, dunyoqarashi keng, siyosiy-huquqiy barkamol inson bo'lmog'i zarur. Ular huquqiy tamoyillarni hurmat qilmog'i kerak. Adolatli qonunlar o'zini himoya qilishini bilgan va ular kim uchun, nima sababdan qabul qilinganini tushungan har bir yosh avlod hech qachon qoqilmaydi, nojo'ya hatti-harakatlardan o'zini tiyadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda «Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari» konsepsiyasi amaliyotga tadbiiq etilmoqda. Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek, «fuqarolik jamiyati mavjud bo'lmagan joyda siyosiy kelishuvning ham bo'lmasligi o'z-o'zidan ayondir». Zero, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish degani davlatning kuchliligi yo'qoladi, degani emas, fuqarolik jamiyati qanchalik taraqqiy topgan bo'lsa, davlatdagi birdamlik, barqarorlik va uyg'unlik shunchalik mustahkam bo'ladi.

Prezident Islom Karimov «Kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari» konsepsiyasini 1998 yilda «Tafakkur» jurnali bosh muharriri bilan bo'lgan suhbatda ko'targan edi. Milliy istiqlol g'oyasi Kadrlar tayyorlash milliy dasturi bilan uyg'un bo'lib, ularning ikkalasi ham komil insonni tarbiyalashga qaratilgan. «Beshinchidan, degan edi yurtboshimiz, - biz fuqarolik jamiyati qurishni maqsad qilib qo'yganmiz. Bu maqsad dastlabki, ammo muhim qadam qo'yildi.

Ishonchim komilki, vaqti-soati kelib, bugungi o'tish davri uchun zarur bo'lgan kuchli davlat funksiyalari va alomatlari asta-sekinlik bilan tadrijiy ravishda kuchli jamiyat zimmasiga o'tadi. Mana shu yo'l, mana shu nazariy masalaning mohiyatini atroflicha yotirish, uni hayotimizda, amaliyotimizda hal qiluvchi siyosatga aylantirish nafaqat bugungi, balki ertangi kunimizning ham eng muhim dolzarb vazifasidir. Taraqqiyotning umumbashariy qonuniyatlari, insoniyatning ko'p yillik hayotida sinovlaridan o'tib, ijobiy natijalar bergan tajribalar xuddi shu yo'lni taqozo etadi".

Jamiyatni demokratiyalash jarayoni siyosiy institutlar - partiyalar, nodavlat va jamoat birlashmalarini mustahkamlash va rivojlantirish bilan bevosita bog'liq - jamiyat hayotida nodavlat va jamoat tizimlarining mavqei o'sib borayotganini

alohida ta'kidlash lozim.

Fuqarolik jamiyatining ijtimoiy-siyosiy sohasi ko'lamiga ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar va harakatlar, fuqarolarning turli shakldagi faoliyati, o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat ommaviy axborot vositalari ham mansubdir.

I.A.Karimovning "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida" asarida mustaqillikning qabul qilinishi, aholini ijtimoiy muhofaza qilish va iqtisodiyotni tubdan isloh etishning prinsiplar masalalari talqin qilindi. Shuningdek, sud-huquq tizimini yangi asosda birlashtirishga qaratilgan "Davlat tili haqida"gi Qonun – sud-huquq tizimidagi yangilanishlarning deyoqasi, O'zbekistonda Prezidentlik institutining joriy etilishi, O'zbekistonning mustaqil deb e'lon qilinishi haqida qimmatli ma'lumotlar bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, dunyoviy fuqarolik jamiyatida har kim o'z ishini qilishi, shug'ullanishi, shuningdek, din dinning ishini, davlat davlatning ishini qilishi kerak. Davlat diniy masalalarga aralashmaganidek, din ham davlat ishlariga, siyosiy jarayonlarga aralashmasligi kerak. Agar yoshlarimiz orasida o'z mamlakatida diniy qadriyatlarining rivoji, ma'naviy yuksalishning jamolini ko'rishga xayrixohlar bo'lar ekan, ular, birinchi navbatda, zamon farzandi, milliy g'oya va milliy mafkura egasi bo'lgan bilimdon va ma'rifatli inson bo'lmog'i lozim. Ular azaliy va abadiy ma'naviy qadriyatlarimizdan uzilmagan holda zamonaviy tafakkur darajasidagi bilim va idrokka ega bo'lishlari kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. -T. «O'zbekiston», 2014.
2. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. – T., O'zbekiston, 1992.
3. Karimov I.A. Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'li. – T., O'zbekiston, 1992.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka, tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.6. -T.: «O'zbekiston», 1997.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T., O'zbekiston, 1998.
6. Karimov I.A. Jamiyat mafkurasi xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat etsin. T.7.- T.: «O'zbekiston», 1999.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T., O'zbekiston, 1999.

8. Karimov I.A. Milliy istiqlol mafkurasi - xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000.
9. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. -T.: «O'zbekiston», 2000.
10. Karimov I.A. «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga so'z boshi. T.9. -T.: «O'zbekiston», 2001.
11. Karimov I.A. Vatanimizning tinchligi va xavfsizligi o'z kuch - qudratimizga, xalqimizning hamjihatligi va bukilmas irodasiga bog'liq. -T.: «O'zbekiston», 2004.
12. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l - demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. -T.: 2 - T. «O'zbekiston», 2003.
13. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizligimiz o'z kuch-qudratimizga, hamjihatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. T.12. -T.: «O'zbekiston», 2004.
14. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. - T.: «O'zbekiston», 2005.
15. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. - T.: «O'zbekiston», 2005.
16. Karimov I.A. Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblashar edi. T.: «O'zbekiston», 2005.
17. Karimov I.A. Demokratik huquqiy davlat, erkin iqtisodiyot talablarini to'liq joriy etish, fuqarolik jamiyati asoslarini qurish – farovon hayot garovidir. -T., “O'zbekiston” NMIU, 2007.
18. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – T., Ma'naviyat, 2008.
19. Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T., O'zbekiston, 2010.
20. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T., O'zbekiston, 2011.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning to'qqizinchi sessiyasidagi (2002 yil 29-30avgust) ma'ruzasida bayon etilgan asosiy vazifalar va qoidalarni keng yoritish bo'yicha tashkiliy-ma'rifiy tadbirlar Dasturi. –T.: O'zbekiston, 2002. B.10.
22. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabridagi qo'shma majlisida qilgan ma'ruzasi. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. – T., 2010, 3-bet.
23. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1990 y., 31-33-son, 355-modda.
24. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995 y., 6-son, 121-modda
25. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning “O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” kitobini o'rganish bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma. – T., “O'qituvchi” nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2012.
26. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri», - T.: «Adabiyot», 1993.
27. Azizxo'jaev A.A. Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar. - T.: «SHarq», «Akademiya», 2001.
28. Azizxo'jaev A.A. CHin o'zbek ishi. - T.: «Akademiya», 2003.
29. Istiqlol, demokratiya va fuqarolik jamiyati. – T., SHarq, 2003.
30. Ishmuhamedov R. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari. – T., 2007.
31. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovasion texnologiyalar. – T., 2008.
32. Bekmurodov A.SH. Ma'naviy - ma'rifiy faoliyat: ustuvor masalalar va innovasiyalar. - T.: TDIU, 2005.
33. Karimov I., Valieva S., Tulenova K. Ijtimoiy falsafa (Uslubiy qo'llanma). – T., Nizomiy nomidagi TDPU, 2008.

34. Matyakubov SH., Bobajanov J. Fuqarolik jamiyati barpo etishda inson huquqi masalalarining tutgan o'rnini. – T., 2001.
35. Pugachev V. P. , Solovev A. I. Siyosatshunoslikka kirish. – T., YAngi asr avlodi, 2004.
36. Sultonov T. va bosh. Siyosatshunoslik. O'quv qo'llanma. – T.: TDMI, 2005.
37. Falsafa. Qomusiy lug'at. – T., SHarq, 2004.
38. Jo'raev N., Azizov. SH. "Ijtimoiy asoslari". T., «Marifat Madadkor», 2003.
39. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – Toshkent, «O'zbekiston», 2000.
40. "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori 25-bet; 2006, "O'zbekiston ovozi" 27 avgust 2007.
41. SHermuhamedov S. Mustaqillik - buyuk ne'mat. - T., O'zbekiston, 2010.
42. O'zbekiston mustaqilligining ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy rivojlanish masalalari xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari. 1997 yil, 18-20 noyabr, Samarkand.
43. Qirg'izboev M. Fuqarolik jamiyati: nazariya va xorijiy tajriba. - T., YAngi asr avlodi, 2006.
44. Haydarov K, Irgasheva M., Ziyoev S., Yo'ldosheva S. Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari. – Samarqand, Zarafshon, 2006.
45. Ergashev I. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasi: O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim bakalavriat bosqichi uchun darslik. -T.: Akademiya, 2005.

**Quyidagi internet saytlaridan foydalanildi:**

1. [www. gov. uz](http://www.gov.uz)
2. [www. press - service. uz.](http://www.press-service.uz)
3. [www. bilim. uz.](http://www.bilim.uz)
4. [www. philosophy.ru.](http://www.philosophy.ru)
5. [www. filosofiya.ru.](http://www.filosofiya.ru)

6. [www. philosophy.nsc.ru.](http://www.philosophy.nsc.ru)
7. [http // philosophy.albertina.ru.](http://philosophy.albertina.ru)
8. [www. history.ru.](http://www.history.ru)
9. [www. philosophy.com.](http://www.philosophy.com)
10. [www. ma'naviyat.uz.](http://www.ma'naviyat.uz)

### MAVZUGA OID TAYANCH SO'ZLARI

№	O'zbekcha	Ruscha	Inglizcha
1.	Millat	Нация	Nation
2.	Milliy	Национальный	National
3.	Ozodlik	Свобода	Freedom
4.	G'oya	Идея	Idei
5.	Mafkura	Идеология	Ideology
6.	Vatan	Родина	Native tant
7.	Vakil	Делегат	Delegate
8.	Demokratiya	Демократия	Democracy
9.	Bayroq	Флаг	Flag
10.	Ogohlik	Бдительность	Vigittance

11.	Dunyoviy	Мировой	World
12.	Sadoqat	Преданность	Dedication
13.	Namoyish	Демонстрация	Demonstration
14.	Delegatlar	Депутаты	Deputy
15.	Mustaqillik	Независимость	Independence
16.	Terror	Терроризм	Terror
17.	Qaramlik	Зависимость	Dependence
18.	Sodiq, fidokor	Преданный	Devoted
19.	Samimiy	Искренний	Sincere
20.	Qahramonlik	Героизм	Heroism
21.	Mangu, abadiy	Вечный	Eternal
22.	Siyosat	Политика	Politics
23.	Maqsad	Цель	Aim
24.	Kelajak	Будущий	Future
25.	Ajdod	Предок	Ancestor
26.	Xavfsizlik	Безопасность	Safeti
27.	Insonparvarlik	Гуманизм	Humanizm
28.	Beparvolik	Халатность	Negliaence
29.	Buyuk	Великий	Great
30.	Birdamlik	Единство	Unite
31.	Davlat	Государство	State
32.	G'urur	Гордость	Pride
33.	Ommaviy	Публичный	Publik
34.	Diplomatik vakil, elchi	Посол	Envoy